



Situational expertise firearms

Abdovakhob ZULFUKAROV¹

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2023

Received in revised form

15 September 2023

Accepted 25 October 2023

Available online

15 December 2023

Keywords:

situational forensic examination, situational ballistic examination, diagnostic ballistic examination, modeling, tasks of situational type of forensic ballistic examination, objects of situational forensic ballistic examination, subject of situational examination, main tasks solved by situational examination, purpose of situational ballistic examination, situational examinations related to the subject of evidence, features of situational forensic examination, conducting situational expertise, methods for determining the firing range from close or long range, sighting.

ABSTRACT

The article discusses the concept of situational forensic examination, the tasks of situational ballistic examinations, the differences and tasks of this type of examination from diagnostic ballistic examination, the objects and subject of the study of situational forensic ballistic examination, issues of quality and completeness of materials submitted when appointing this type of forensic examination. The tasks of determining the location of the shooter from firearms were investigated, based on the results of the analysis of scientific works of industry specialists and forensic expert practice, the circumstances (algorithm of expert actions) that must be performed to solve issues to be solved in the forensic ballistic examination of this type were recommended. Taking into account the specifics of situational forensics, a method of sighting was proposed to determine the direction of firing using a mirror.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss9/S-pp72-81>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Senior Lecturer, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Department of Forensic Examinations of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. E-mail: Zulfuqorovabduxob@gmail.com.

O'qotar qurollarning situatsiviy ballistik ekspertizasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

situatsiyaviy sud ekspertizasi, situatsiyaviy ballistik ekspertiza, diagnostik ballistik ekspertiza, modellashtirish, sud-ballistika ekspertizasining situatsion turdagi vazifalari, situatsiyaviy sud-ballistika ekspertizasi ob'yektlari, situatsiyaviy ekspertizaning predmeti, situatsiyaviy ekspertiza hal qiladigan asosiy vazifalar, situatsiyaviy-ballistik ekspertizani tayinlash, isbotlash predmeti bilan bog'liq situatsiyaviy ekspertizalar, situatsiyaviy sud ekspertizasining xususiyatlari, situatsiyaviy ekspertizani o'tkazish, yaqindan yoki uzoqdan o'q otish masofasini aniqlash usullari, vizirlash.

Maqolada situatsiyaviy sud ekspertizasi tushunchasi, situatsiyaviy ballistik ekspertizalarning vazifalari, bu turdagi ekspertizaning diagnostikaviy ballistik ekspertizadan farqlari va vazifalari, situatsiyaviy sud-ballistika ekspertizasining ob'yektlari va tadqiqot predmeti, bu turdagi sud ekspertizasini tayinlashda etilgan materiallarning sifati va to'liqligi masalalari o'rganilgan. O'qotar quoldan otuvchining joylashgan joyini aniqlash bo'yicha vazifalar tadqiq qilingan, soha mutaxassislarining ilmiy asarlarining va sud ekspertlik amaliyotining tahlillari natijalariga asoslanib, bu turdagi sud-ballistik ekspertizasida hal qilish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan holatlar (ekspert harakatlarining algoritmi) tavsiya qilingan. Situatsiyaviy sud ekspertizasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'q otish yo'nalishini aniqlashning ko'zgu orqali vizirlash uslubi yordamida o'q otish yo'nalishini aniqlash usuli taklif qilingan.

Ситуационные экспертизы огнестрельного оружия

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

ситуационная судебная экспертиза, ситуационная баллистическая экспертиза, диагностическая баллистическая экспертиза, моделирование, задачи ситуационного типа судебно-баллистической экспертизы, объекты ситуационной судебной баллистической экспертизы, предмет ситуационной экспертизы,

Статья посвящена анализу концепции ситуационной судебной баллистической экспертизы. В ней освещаются основные задачи и принципиальные различия между ситуационной и диагностической баллистическими экспертизами. Автор подробно описывает объекты и предметы исследования в рамках ситуационной экспертизы и подчеркивает важность полноты и качества материалов, предоставляемых для ее проведения. Важной частью статьи является исследование задач, связанных с определением местоположения стрелка, основанное на анализе научных работ специалистов и практического опыта судебно-баллистических экспертиз. Автор предлагает конкретный алгоритм действий эксперта, направленный на решение задач, стоящих перед судебно-баллистической экспертизой. С учетом специфики ситуационной криминалистики, в статье представлен инновационный метод визирования для определения

основные задачи, решаемые ситуационной экспертизой, назначение ситуационно-баллистической экспертизы, ситуационные экспертизы, связанные с предметом доказывания, особенности ситуационной судебной экспертизы, проведение ситуационной экспертизы, методы определения дальности стрельбы с близкого или дальнего расстояния, визирование.

направления стрельбы с использованием зеркала, что может стать значительным вкладом в методологию судебной баллистики.

Situatsiyaviy sud ekspertizasini shakllantirish g'oyasi L.G.Granovskiya (1977-y.) tegishli. Olim ushbu ekspertizani kriminalistik sud ekspertizalari sinfiga kiritgan hamda bu turdagi ekspertizasining ob'yektini – hodisa (voqea) va bevosita tadqiqot ob'yektini – hodisa sodir bo'lgan joy va vaziyatni – aniqlagan.

“Situatsiyaviy ekspertiza” tushunchasi asosida “vaziyat”, “situatsiya” tushunchalari yotadi. O'zbek tilining izohli lug'atida: “Vaziyat” [arabcha – mavqe, holat] – 1) Biror narsaning fazoda egallab turgan holati, o'zini tutgan holati; 2) tutgan o'rin, mavqe, nufuz; 3) Jamiyatdagi, hayotdagi sharoit, holat” [1, B.434] deya ta'rif berilgan.

Kriminalistika fanida vaziyat deganda jinoyat sodir etilgan vaziyat jinoyat qayerda, qanday vaziyatda sodir etilgan, mavjud izlarning qaysi biri jinoyatga aloqadorligi tushuniladi. Shu bilan birga, vaziyat (situatsiya) quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: “o'ziga xoslik, retrospektiv, moddiy sharoitda va ideal (odamlar ongida) shakllarda aks etish” [2, S.146]. Darhaqiqat “jinoyat ishlari bo'yicha tergov vaziyatlari tayin bir jinoyatni tergov qilishning muayyan paytidagi o'ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi holatlar majmuidan iborat bo'ladi” [3, B.212].

V.D. Isakovning ta'kidlashicha, “agar hodisa vaziyatini muayyan bir tizim sifatida ko'rilsa, unda aniqlanishi kerak bo'lgan ikkita katta guruhni shartli ravishda ajratish mumkin: 1) vaziyatning nisbatan o'zgarmas tarkibiy qismlariga oid (hodisa ishtirokchilari, jinoyatni sodir etish vositalari va boshqa narsalar, jinoyat izlarini yashirish vositalari); 2) vaziyatning o'zgaruvchan tarkibiy qismlariga oid (ob'yektlarning holati, joy sharoitlari, vaqt, sub'ektlarning, ob'yektlarning o'zaro ta'sirlashish mexanizmi)” [4, S.10].

Shunday qilib, ekspert tadqiqotlari nuqtai nazaridan vaziyat deganda jinoyat ishi doirasidagi muayyan fazo va vaqtga oid holat bo'lib, bu holat kelgusida ekspertlik taqqoslashi orqali baholanishi kerak.

R.S. Belkinning fikricha, situatsion ekspertiza “vaziyatni izlar va ob'yektlar bo'yicha o'rganadigan va hodisa mexanizmini yoki uning elementlarini aniqlaydigan ekspertiza” [5]. D.S. Korovkin va A.S. Yagunovlar sud-ballistik situatsion ekspertizani “belgilangan protsessual shaklda o'tkaziladigan, tergov va sud organlari uchun muhim bo'lgan, jinoyat sodir etish paytida o'qotar qurol va o'q-dorilarni qo'llash holatlari va shartlari to'g'risida

asosli dalillarni olishga qaratilgan maxsus ekspert tadqiqotlari” deb ta’riflaydilar [6, S.149].

Situatsiyaviy ekspertizaning diagnostik ekspertizadan farqlovchi jihati shundaki, situatsiyaviy vazifalarni bajarishda tadqiqot ob’ekti sifatida hodisa sodir bo’lgan joyga aloqador bo’lgan, ma’lum bir statik holatdagi qandaydir ob’yektgina emas, balki, hodisa sodir bo’lgan joydagi butun moddiy muhit, shu jumladan, o’rganilayotgan vaziyat bilan bog’liq holda ushbu ob’yektda va atrofi-muhitda sodir bo’lgan o’zgarishlar ham maydonga chiqadi. Binobarin, muayyan sharoitlarda harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini, sodir bo’lgan hodisa holatlariga muvofiqligini; aniq harakatlar bilan ularning natijasida yuzaga keladigan oqibatlar, holatlar va hodisalar o’rtasidagi sababiy bog’liqlikni aniqlash bilan bog’liq muammolarni hal qiladigan vazifalarni situatsiyaviy vazifalarga kiritish mumkin

Bu kabi vazifalar sodir etilgan jinoyatning holatini, sodir bo’lgan hodisa mexanizmlarini qayta tiklash (modellashtirish) asosida, tegishli ob’yektlarning yoki (va) ular akslarining tadqiqotlarida hal qilinadi.

Shu sababli, ushbu turdagi tadqiqotlarni situatsiyaviy ballistik ekspertizaning alohida turi ekanligini ta’kidlash mumkin. Bu turdagi ekspertizani kompleks tibbiy-kriminalistik situatsiyaviy sud-ballistik ekspertizasi deb atash mumkin.

Sud-ballistika ekspertizasining situatsion turdagi vazifalari — ballistika ekspertizalari ob’yektlarining qay holatda, qay sharoitda, qanday tartib va ketma-ketlikda vujudga kelganligi, o’qotar qurol ishlatilishi bilan bog’liq holda voqea sodir bo’lgan joyni ko’zdan kechirish, uning maqsadi hamda ushbu turdagi ekspertiza ob’yektlarini qidirish, topish, aniqlab olish va protsessual jihatdan qayd etish kabi masalalarni, ya’ni o’qotar qurol ishlatilishi bilan bog’liq bo’lgan ishlar bo’yicha voqea joyini ko’zdan kechirish vazifalaridan biri daliliy ashyolarni (gilza, snaryad, pij va h.k.) aniqlash, ko’zdan kechirish, qayd etish va topib olish ekanligi, bunday voqealar sodir bo’lgan joyni ko’zdan kechirishda mutaxassis sifatida ekspert-kriminalistlarning ishtiroki, o’q otilgan joy yoki uning yaqin-atrofida qurol yoxud uning alohida qismlarini, o’qlar, sochmalar, kartechnlar, gilzalar, pijlar, prokladkalar, o’q otilishining qo’shimcha mahsulotlari, ularning izlari va h.k.ning topilishi hamda voqea joyidagi ballistik xarakterga ega bo’lgan izlar va ob’yektlar bo’yicha hal etiladigan va eng ko’p tarqalgan savollar, o’q otilish izlari bo’yicha uning masofasi va yo’nalishini, snaryadning uchish yo’nalishini va o’q otilish joyini, o’q otilish izlari bo’yicha uning masofasi va qurolning turi, o’q otilish masofasini to’siqdagi izlarga qarab aniqlash, shuningdek o’q otilish izlarining kompleks tadqiqoti, o’q otilish izlarini ekspertiza qilishda eksperimental o’q otib olishlar, bu eksperimentga tayyorgarlik ko’rish va ularni o’tkazish metodikasi, o’q otilish yo’nalishini aniqlashning metodikasi va qurolning to’siqqa nisbatan holatini hamda otuvchi hamda jabrlanuvchining o’zaro joylashishini aniqlash, o’q otilishlar miqdori va ularning tartibini aniqlash metodikasini o’rganishni o’ziga maqsad qilib qo’yadi [7, B.29].

Yuqoridagilardan situatsiyaviy sud-ballistika ekspertizasi ob’yektlarining doirasi ancha keng, o’zgaruvchan va doimiy ravishda o’sib borish xususiyatiga egaligi kelib chiqadi. Bu turdagi ekspertizaning ob’yektlari o’ziga xos xususiyatga ega bo’lib, ular sirasiga turli xil buyumlar, moddalar, jarohat va shikastlanishlar hamda moddiy qayd etiluvchi akslar yoki tasvirlar kiradi. Jumladan: tadqiqot ob’yektlari — buyumlar; moddalar; shikastlanish va jarohatlar; moddiy qayd etiluvchi akslar-izlar. Ushbu sanab o’tilgan buyumlar, moddalar, jarohatlar va aks-tasvirlar ekspertizaga taqdim etilgan daliliy ashyolar, shuningdek, taqqoslash uchun namunalar sifatida namoyon bo’lishi mumkin.

Situatsiyaviy ekspertizaning predmeti bo'lib "muayyan hodisaning (jarayon) holatlarini, shuningdek ma'lum bir sharoitlarda muayyan harakatlar natijasida kelib chiqadigan oqibatning yuzaga kelishi ehtimolini aniqlash uchun, moddiy axborot tashuvchilarning maxsus uslublar orqali o'tkaziladigan tadqiqotlar asosida ekspert vazifalarini hal qilish" hisoblanadi [8, S.18].

Situatsiyaviy ekspertiza hal qiladigan asosiy vazifalardan biri – bu u yoki bu hodisalarning mumkin bo'lgan variantlarini yoki asl (haqiqiy) dinamikasini (kechishini) aniqlashdir.

Situatsiyaviy-ballistik ekspertizani tayinlashda, ekspertga tekshirilayotgan hodisaning dinamikasini aks ettiruvchi vaziyat to'g'risida xolisona qayd etilgan ma'lumotlarni (hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi, tan jarohati yetkazish holatlari va shartlarini modellashtirish bo'yicha tergov harakatlariga oid materiallar - tergov eksperimenti, ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish tergov harakatlarining bayonnomalari, fotojadvallar, tergov harakatlarining video yozuvlari) taqdim etilishi lozim.

Yuqoridagilardan situatsiyaviy ekspertizani tayinlashda ekspertga taqdim etilgan materiallarning sifati masalalari alohida ahamiyatga ega bo'lishi kelib chiqadi. Tergov harakatlari (so'roq, ko'rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish, tergov eksperimenti) bayonnomalarida sodir bo'lgan hodisa holatlarini batafsil aniqlashtirish talab etiladi, ekspertga taqdim etilgunga qadar ashyoviy dalillar, ularda mavjud bo'lgan jinoyat izlarining axborotli ahamiyatini yo'qotishni istisno qiladigan sharoitlarda saqlanishi kerak.

Biroq, ta'kidlash joizki, ekspertga taqdim qilinayotgan tergov harakatlari bayonnomalarining sifati har doim ham yuqorida kabi sifatli bo'lmaydi. Ko'pincha, tergov ko'zdan kechirishi ob'yektlarining tavsifi haddan tashqari qisqa holda taqdim etiladi va natijada, hodisa sodir bo'lgan joyning holatini aks ettirishda ko'p narsa bayon etilmay qoladi.

Isbotlash predmeti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan situatsiyaviy ekspertizalar imkoniyatlaridan foydalanish, sudlarning ish hajmi ortib borayotgan hozirgi sharoitda, shaxsni asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortishning oldini oladi [9, S.35].

Turli xil vaziyatga oid holatlarni aniqlashtirish uchun skanerlovchi elektron mikroskopiya usuli yaxshi samara beradi. Bu usul yordamida: o'q otish holatini, otuvchining holatini, o'q otish usulini (bir qo'li bilan, ikki qo'li bilan va h.k.) otish yo'nalishini (yuqoridan pastga va boshq.) aniqlash mumkin [10, S.26].

Xulosa qilib aytganda, biz situatsiyaviy sud ekspertizasining quyidagi xususiyatlari haqida gapirish mumkin: o'zining xususiyatlariga ko'ra, ko'p hollarda bu kompleks sud ekspertizasi; bu turdagi ekspertizani o'tkazishda hodisa sodir bo'lgan joyning tadqiqotlari bilan bog'liq tergov harakatlarining natijalari hisobga olinishi kerak; situatsiyaviy ekspertizaning predmeti bo'lib, isbotlov predmeti bilan bog'liq bo'lgan holatlar hisoblanadi; sodir bo'lgan hodisaning ko'p tarkibli holatlaridan iborat bo'lgan tadqiqot ob'yektlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan, hal qilinadigan vazifalarning murakkab va ko'p bosqichli tabiati bilan ajralib turadi; tergov va sud tomonidan ilgari surilgan tasmollar asosida o'tkaziladi; bu turdagi ekspertizasi o'tkazishda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish natijalari, shuningdek boshqa tergov harakatlari, shu jumladan, tergov eksperimenti natijalaridan foydalaniladi, shuningdek, ilgari o'tkazilgan sud ekspertizalari bo'yicha ekspertlarning xulosalari hisobga olinadi; "situatsiyaviy

ekspertiza” va “situatsiyaviy ekspertiza tadqiqotlari” tushunchalari bir-biridan farq qiladi, “situatsiyaviy ekspertiza tadqiqotlari” atamasi o‘z mohiyatiga ko‘ra kengroq tushunchadir [2, S.149].

Situatsiyaviy ekspertizani o‘tkazishda sud ekspertlari aniq holatlar, bayonotlar (har doim ham xolis bo‘lmaydigan ma‘lumotlar), shuningdek ob‘yektning holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar to‘plami bo‘lgan muayyan vaziyatlarni tadqiq qiladilar. Aniq vaziyat esa ekspertiza tayinlagan tergovchi (surishtiruvchi) tomonidan taklif etiladi. Vaziyatni, izlar va taqdim etilgan ob‘yektlar bo‘yicha tadqiqotlarida sud eksperti jinoyat sodir etish mexanizmini, uning alohida elementlarini aniqlash bilan bog‘liq xulosalar chiqaradi.

Tadqiqot ob‘yektlari sifatida hodisa sodir bo‘lgan joydagi buyumlargina emas, balki boshqa ashyoviy dalillar ham o‘rganiladi. Biroq, ta‘kidlash joizki, situatsiyaviy ekspertiza imkoniyatlari har doim ham samarali ishlatilmaydi.

Bu holat ekspertiza tayinlash amaliyotida ushbu turdagi sud ekspertizasini tayinlashda ekspertga taqdim etilgan materiallarning sifati va to‘liqligi talab darajasida emasligi bilan bog‘liq. Ayrim hollarda, tergovchi ayblanuvchi yoki guvohlar ko‘rsatuvlarining “ishonchliligini” tekshirishni maqsad qilib, ekspertga taqdim qilingan so‘roq bayonnomalarida, ayblanuvchi jinoyat sodir etilgan paytdagi holati (spirtli ichimlik yoki giyohvandlik moddalari bilan mastlik holatida, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida) sababli, jinoyatni sodir etish quroli (vositasi), yetkazgan zarbalari (tan jarohati yetkazish bo‘yicha ishlarda) va yetkazilgan tan jarohatlarining joylashishi kabi ma‘lumotlarni bera olmaganligi ko‘rsatiladi, buning natijasida, ayblanuvchining sodir etilgan jinoyatga aloqadorligi to‘g‘risida dalillarni to‘plashning boshqa usullari va manbalarini e‘tiborsiz qoldiriladi.

Ko‘rinib turibdiki, situatsiyaviy ekspertizani tayinlashda ekspertga taqdim etilgan materiallarning sifati masalalari alohida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu sababli, tergov harakatlari (masalan, so‘roq, ko‘rsatuvlarni hodisa joyida tekshirish, tergov eksperimenti) bayonnomalarida sodir bo‘lgan hodisa tafsilotlarini batafsil aniqlashtirish, ekspertga taqdim etilgunga qadar ashyoviy dalillar, ularda mavjud bo‘lgan jinoyat izlarining axborotli ahamiyatini yo‘qotishni istisno qiladigan sharoitlarda saqlanishi talab etiladi.

Olib qo‘yilgan ob‘yektlarni (buyum, narsa) o‘rab-joylashtirishga ham bir qator talablar qo‘yiladi. “O‘q otilishdan hosil bo‘lgan shikastlanishlar mavjud bo‘lgan kiyimlarni o‘rab-joylashtirishga qo‘yiladigan talablaridan biri – shikastlangan joyni himoya qilish (masalan, mato yoki qog‘oz bo‘lagi bilan tikib to‘sib qo‘yish) hisoblanadi, shunda matodagi shikastlanish atrofiga begona moddalar tushib qolmaydi. Yuqoridagi talablarga rioya qilinganda, situatsiyaviy ekspertiza tadqiqotlarining natijalari baxtsiz tasodif natijasida kelib chiqqan o‘lim hodisasiga oid tergov tasmolarini tekshirishda samarali qo‘llaniladi” [9, S.35].

Masalan, qotilliklarni tergov qilishda, o‘limning ehtiyotsizlik oqibatida kelib chiqqanligini haqidagi tumolni tekshirish kerak. Ushbu tusmoni tekshirish uchun sud-ballistik ekspertizasini tayinlash to‘g‘risidagi qarorda quyidagi savol qo‘yilishi mumkin: ushbu quroldan qo‘yib yuboruvchi ilmoqni bosmasdan o‘q otish imkoniyati mavjudmi?

Bu kabi vazifa yuz bergan o‘q otish tasodifiy yoki ataylabdan amalga oshirilganligini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. O‘qotar quroldan tasodifiy (qo‘yib yuboruvchi ilmoqni bosmasdan) o‘q otish deganda o‘qotar quroldan otuvchining ixtiyorisiz sodir bo‘lgan otish

tushuniladi. O'qotar quroldan, uning nosozligi sababli tasodifiy (beixtiyor) otish ehtimoli mavjud bo'ladi.

O'qotar qurolning texnik holatini tadqiqi qilib sud eksperti, qurolning qo'yib yuboruvchi ilmog'ini bosmasdan o'q otishning ob'yektiv imkoniyatini aniqlashi kerak, o'q otish tasodifiy (beixtiyor) yoki ataylabdan amalga oshirilganligini aniqlash esa tergovchi va sudning vakolati hisoblanadi.

O'qotar quroldan otuvchining joylashgan joyini aniqlash quyidagi uchta kichik vazifani ketma-ket hal qilishdan iborat: o'q otish yo'nalishini, o'q otish masofasini va otilgan o'qning uchish trayektoriyasini aniqlash. O'q otish yo'nalishini aniqlagandan so'ng, otilgan snaryadning to'siq bilan uchrashish burchagini, snaryad tekkanidan keyin ob'yektning holati o'zgariganligini va keyin azimut burchak hamda tushish ("zenit") burchagini aniqlash kerak bo'ladi.

Otish masofasini aniqlash noaniq yechimga ega vazifadir, chunki bu kabi tadqiqotlar bo'yicha hisob-kitoblarda ko'plab omillarni (to'siqlar materialining turlichaligi, snaryadning deformatsiyasi, havoning o'qning shakli, tezligi va boshqa xususiyatlariga bog'liq bo'lgan doimiy o'zgaruvchan qarshilik kuchi) hisobga olishning har doim ham imkoni bo'lmaydi.

O'qning boshlang'ich tezligi va oxirgi tezligi o'zaro 1,5 – 2 marta farq qilganda, ya'ni to'g'ridan o'q otishda yoki aniq belgilangan uchish trayektoriyasi bo'yicha o'q otilganda, o'qning masofasini tegishli ballistik tenglama yordamida aniqlash mumkin.

Hozirgi vaqtda sud ballistika ekspertizasida yaqindan yoki uzoqdan o'q otish masofasini aniqlashning bir necha usullari mavjud. Masalan, L.S. Lazari ushbu masalani hal qilish uchun "emission-spektral, neytron-aktivatsion, atom-absorbsion, rentgen-fluouessent usullari yordamida, o'q otish mahsulotlari joylashgan sohasidagi surma moddasi miqdorini aniqlashni taklif qiladi. Bu usullar taxminan 50 metr dan o'q otish masofasini aniqlashga imkon beradi" [11, S.227].

I.A. Dvoryanskiy otish masofasini aniqlash uchun otilgan snaryad, ushbu snaryad otilgan qurol, o'qotar qurolning joylashgan joyi (erdan balandiligi bo'yicha), shuningdek, snaryadning to'siq bilan uchrashishi (to'qnashuvi) burchagi to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zarur hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkon beradigan boshqa ma'lumotlar yig'indisidan foydalanishni taklif qiladi [12.]. Olingan dastlabki ma'lumotlar o'q otish masofasini hisoblash bo'yicha formulalarga kiritiladi. Biroq, bu usul faqat ballistik xususiyatlari oldindan ma'lum bo'lgan standart o'qotar qurol va patronlardan foydalanilgan holatlarda qo'llanilishi mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari, o'q otish masofasini aniqlash, shikastlanishni eksperimental modellashtirish yordamida ham aniqlanishi mumkin, bu holda modellashtirilgan shikastlanish, tekshirilayotgan shikastlanish bilan bir xil (xususan, chuqurligi yoki hajmi bo'yicha) bo'lishi kerak. O'q tegishidan hosil bo'lgan shikastlanish kanalining chuqurligidan o'q otish masofasini aniqlash, soyli o'qotar quroldan otilgan snaryad deformatsiyalanmagan va faqat to'siq o'zgarishga (deformatsiyaga) uchragan holatlarda mumkin bo'ladi [13, S.363].

Sud eksperti tomonidan o'q otish masofasini aniqlash jinoyatchilar tomonidan sochma o'q bilan o'qlangan silliq stvolli o'qotar qurollardan foydalanilganda ham amalga oshiriladi, albatta bunday holat ekspertlik amaliyotida kam uchraydi.

Odatda, bunday hollarda otish masofasini aniqlash sochma o'qlarning sochilish (tarqalishi)ni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun eksperimental ravishda

olingan jadval ma'lumotlaridan foydalaniladi, bunday jadval shikastlangan ob'ektdagi sochma o'qlar sochilish maydoni (diametri), maydon birligiga nisbatan snaryadlar tegishlarining miqdori va o'q otish masofasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. O'q otish masofasini aniqlashni soddalashtirish uchun A.F.Lisitsin otish masofasini sochma o'qlarning tarqalish diametri bo'yicha aniqlash uchun nomogramma shaklidagi, hisoblashning grafik usulini taklif qildi, bu usulda sochma o'qlarning o'lchamlari, shuningdek porox turi (tutunli yoki tutunsiz) hisobga olinadi [14, S.225-226].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bu turdagi sud-ballistik ekspertizasida hal qilish uchun savollarni hal qilish uchun quyidagilar amalga oshiriladi deb xulosa qilish mumkin:

Snaryadning uchish trayektoriyasini qayta tiklash uchun uning to'siq bilan to'qnashuv tezligi muhim ahamiyatga ega. Biroq, ushbu tezlikni aniq baholash juda mushkul vazifa bo'lib, bu trayektoriyani aniqlashda, binobarin masofasiga ko'ra o'q otish joyini aniqlashda katta xatolarga olib keladi. Shu sababli, to'siqlarda o'q otish izlari aniqlangan hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda, o'q otish yo'nalishi va o'qning tushish burchagini aniqlanadi, bu ma'lumotlar esa yetarlicha to'liq va to'g'ri aniqlanishi mumkin. So'ng esa, o'qning mumkin bo'lgan maksimal otish masofasi baholanadi hamda hodisa sodir bo'lgan joy o'q otish joyini va otilgan gilzalarni aniqlash uchun tadqiq qilinadi.

O'q otilgan (o'q otuvchi joylashgan) joyni avtomatik tarzda otilgan yoki sochma o'qlar otish natijasida yetkazilgan bir nechta shikastlanishlarni tadqiqotlari yordamida aniqlash mumkin. Bunday hollarda, otuvchining joylashgan joyi har bir teshik bo'yicha vizirlash usulini qo'llab aniqlanadi. Har bir shikastlanish (teshik) bo'yicha vizirlar chiziqlarning tutashgan nuqtasi ishlatilgan o'qotar qurolning stvol og'zi kesimining joylashishini ko'rsatadi.

Uzoqdan o'q otish yo'nalishini aniqlashning usullaridan biri – bu to'siqlardagi o'q tegishidan hosil bo'lgan shikastlanish (teshik) bo'yicha oyna (ko'zgu) yordamida o'q otish yo'nalishini aniqlashdir. Vizirlash usulida ko'zgularni qo'llash, o'qning uchish yo'nalishi to'siqdagi teshik o'qi bilan mos keladigan, ko'zguda aks etgan tasvirida hosil bo'lishiga asoslangan. Bu holda quyidagi ikkita holat mavjud bo'ladi [15, S.20]:

Birinchi holat – bitta chuqur yopiq shikastlanish (masalan, daraxtdagi teshik) mavjud bo'lgan holat. Buning uchun qattiq asosga payvandlangan, o'qlari o'zaro mos tushadigan ikkita metall spitsa (ingichka qattiq sim)dan iborat moslama ishlatiladi, chiqish spitsasiga vizirlash trubkasi o'rnatiladi. Ushbu qurilmani tayyorlashda asosga bitta spitsa payvandlanadi va keyinchalik u kesildi. Bir vaqtning o'zida asosda ko'zgu o'rnatilgan plastinani joylashtirish uchun ham kesma kesiladi. Plastina asosga 45 S gradus burchak ostida payvandlanadi, bunday maqsad – ko'zgu orqali vizirlash trubkasining o'z o'qiga perpendikulyar aks etishini kuzatishdir. Plastinada kirish va chiqish spitsalarining o'qlari o'zaro mos kelishini tekshirish uchun teshik ochiladi. Ko'zgu plastinkaga ikki tomonlama yopishqoq lenta (skotch) yordamida mahkamlanadi. Ushbu qurilmani yopiq shikastlanish (teshik)ga o'rnatgandan so'ng, oynadan 0,3-0,5 metr masofada shtativ yordamida fotokamera o'rnatiladi. Shtativ yordamida balandlikka ko'tarib, yon tomonga va bo'ylama qiyalik bo'ylab harakatlantirib, fotoapparatni vizirlash naychasining yon qismining aksi ko'rinadigan holatga keltirish lozim. Bunda vizirlash naychasi orqali vizirlash nuqtasi (zonasi) kuzatiladi. Shundan so'ng esa fotosuratga olish mumkin bo'ladi. Fotosuratda vizirlash natijasi – o'q otishning taxminiy joyi qayd etiladi.

Ammo shuni yodda tutish kerakki, fotosuratda hududning ko'zgudagi kabi akslangan tasvirlangan bo'ladi bo'ladi, shuning uchun fotokameraning holatini o'zgartirib, o'sha joydan ushbu hududning odatiy fotosuratga tushirish kerak bo'ladi.

Ikkinchi holat – o'q bir daraxt tanasiga urinma tegib o'tib, ikkinchi daraxtda yopiq shikastlanish (teshik) hosil qiladi. Vizirlash ipini 0,2 - 0,3 m masofada ko'rinadigan qilish uchun kontrastli (rangli keskin farq qiluvchi) material bo'laklaridan ushbu ipga belgilar biriktiriladi (osiladi), bunday kontrastli material sifatida rangli yopishqoq tasma olinishi mumkin.

Ko'zgu uch oyoqli shtativga (masalan, kanselyariya qisqichlari yordamida) aylanadigan qilib mahkamlanadi. Ko'zguning markazida diametri 5 mm bo'lgan teshik mavjud bo'lib, bu teshik orqali vizirlash ipi o'tkaziladi.

Ushbu ko'zgu orqali, vizirlash ipining ko'zgudagi aksi ko'zgudagi teshikning nuqtasigacha yoki hajmigacha kamayadigan holatda keltirilib, fotosuratga olinadi. Bu holda ham fotosuratda vizirlash nuqtasining ko'zgudagi kabi akslangan tasviri olinishini unutmazlik darkor, shuning uchun tekshirilayotgan hududning orientirli fotosuratini olish va keyinchalik unga vizirlash nuqtasini (zonasini) o'tkazish kerak.

Shunday qilib, "ko'zguda aks etgan tasvirga asoslangan o'qning uchish chizig'ini vizirlash moslamalari o'q otilgan joyni yoki hudud maydonini ko'rgazmali tarzda va tezkor aniqlashga imkon beradi" [15, S.21].

Tadqiqotlarning kelgusi bosqichlarida otilgan gilza (gilzalar) va o'q otuvchining joylashgan joyini aniqlash maqsadida bu joy batafsil ko'zdan kechiriladi.

Vizirlashning ushbu usuli tadqiqotlar jarayonining ko'rgazmaliligi va xolisligini sezilarli darajada oshiradi, shuningdek o'ziga xos protsessual ahamiyatga ham ega, chunki vizirlash natijalarining fotosuratlari hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish uchun fotojadvalga yoki ekspert xulosasiga ilova qilinishi mumkin.

Tadqiqotlar jarayonida videoyozuvdan foydalanilgan taqdirda ushbu ma'lumotlar jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yiladi.

Xulosa o'rnida situatsiyaviy ballistik ekspertizaning quyidagi xususiyatlarini ta'kidlash mumkin:

- aksariyat hollarda, o'zining tabiatiga ko'ra bu turdagi ekspertizalar kompleks sud ekspertizasi hisoblanadi;

- bu turdagi ekspertizalarni o'tkazishda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish va tadqiqot qilish bilan bog'liq tergov harakatlarining natijalari hisobga olinishi kerak;

- bu turdagi ekspertizaning predmeti – isbotlash predmeti bilan bevosita bog'liq bo'lgan holatlar hisoblanadi;

- yuz bergan hodisaning ko'p tarkibli jarayonlari hisoblangan tadqiqot ob'yektlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan vazifalarning murakkabligi va ko'p bosqichli tabiati bilan boshqa turdagi ballistik tadqiqotlardan ajralib turadi;

- tergov va sud tomonidan ilgari surilgan tasmalar asosida o'tkaziladi;

- bu turdagi ekspertizalarni o'tkazishda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, shuningdek, ko'pgina hollarda boshqa tergov harakatlarining, jumladan tergov eksperimentining natijalari qo'llaniladi, ilgari o'tkazilgan sud ekspertizalari bo'yicha ekspert xulosalari hisobga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 1. O'zbek tilining izohli lug'ati. V-harfi. / Tahrir hay'ati: E.Begmatov, A.Madvaliev, N.Mahkamov, T.Mirzaev (rahbar), N.To'xliiev, E.Umarov, D.Xudoyberganova, A.Hojiev.

A.Madvaliev tahr.ost. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.

2. Блинникова Е.Б. Использование возможностей судебной ситуационной экспертизы // Вестник Томского педагогического университета. 2012. № 12. – С.145-149.

3. Kriminalistika: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / Mualliflar: G‘Abdumajidov va boshq. – Т.: “Adolat”, 2003. – 237 b.

4. Исаков В.Д. Теория и методология ситуалогической экспертизы: (для судебных экспертов и юристов). – СПб., 2008. – 132 с.

5. Белкин Р.С. Криминалистика. Краткая энциклопедия. – М., 1993. – 111 с.

6. Коровкин Д.С., Ягунов А.С. Современное состояние и перспективы развития ситуационной судебно-баллистической экспертизы // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. 2012. №2. – С.149-152.

7. Sh.X.Hasanov, X.A.Turabbaev, A.D.Xusanov, Ballistik ekspertiza: Darslik. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 444 b.

8. Гедыгушев И.Д. Судебно-медицинская экспертиза при реконструкции обстоятельств и условий причинения повреждений: (методика и практика). – М., 1999. – 320 с.

9. Друкаров И.Л. Проблемы назначения наказания при особом порядке судебного разбирательства // Вестн. Томского гос.пед.ун-та. 2006. Вып.11. – С.35-39.

10. Хмелева А.В. Использование результатов исследования следов выстрела в следственной практике // Евразийский юридический журнал. 2015. №12. – С.26.

11. Лазари А.С., Потапова Л.Ф. Установление модели огнестрельного оружия по следам выстрела на преграде // Экспертная техника. – М., 1986. Вып.93. – С.227-230.

12. Дворянский И.А. Установление места производства выстрела при больших дистанциях стрельбы // Судебно-баллистическая экспертиза. – М., 1976. Вып.2. – С.42-46.

13. Светличный А.А. Значение судебно-баллистической экспертизы при расследовании убийств по найму // Известия ТулГУ. Экономические и юридические науки. 2013. №4-2. – С.358-363.

14. Лисицын А.Ф. Упрощенный график расчета дистанции выстрела по радиусу рассеивания дроби // Судебно-медицинская экспертиза, 1982. №3. – С.225-226.

15. Колотушкин С.М., Сафонов А.А. Семенов А.В. Определение направления дальнего выстрела по пробоинам снарядов огнестрельного оружия // Вестник Академии экономической безопасности МВД России. 2015. №2. – С.19-21.